

DEMOKRATIZM TAMOYILLARINING SIYOSIY INSTITUTLAR FAOLIYATIDA SUB'EKTIV VA OB'EKTIV MUNOSABATLARI

Kojageldiyev A.U,
siyosiy fanlar doktori, dotsent.

Uzakbayev Y.A.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada siyosiy institutlar faoliyatida sub'ektiv va ob'ektiv munosabatlari yoritilib berilgan. Siyosat (siyosiy nazariya) – siyosiy institut (siyosiy faoliyatning sub'ekti va ob'ekti) – siyosiy jarayon (siyosiy voqelik) o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, bunda siyosiy institut o'zak bo'lib xizmat qiladi. Nazariya sifatida siyosat siyosiy tizimning maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi, siyosiy institut faoliyat sub'ektlari va ob'ektlarining o'zaro harakatlarini tashkil qiladi, siyosiy jarayonlar esa ushbu o'zaro harakatlar qanday tashkil qilinganini aks ettiradi. Demokratik tamoyillarga asoslangan konstitusionalizm siyosiy faoliyat sub'ekti va ob'ekti sifatida o'zaro harakatlarning in'ikosi ya'ni siyosiy jarayonlarni makro- va mikrodarajalarda shakllantirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Demokratik tamoyil, siyosiy institut faoliyat, siyosiy institut, siyosiy jarayonlar, siyosiy voqelik, demokratik davlat, siyosiy rejim, siyosiy hodisa, ko'ppartiyaviylik tizim, jamiyat qadriyati.

ABSTRACT

The article describes the subjective and objective relations in the activities of political institutions. Politics (political theory) - political institution (subject and object of political activity) - political process (political reality) are interrelated events, in which the political institution serves as the core. As a theory, politics develops the goals and objectives of the political system, a political institution organizes the interactions of subjects and objects of activity, and political processes reflect how these interactions are organized. Constitutionalism, based on democratic principles, is a reflection of interactions as a subject and object of political activity, that is, it can shape political processes at the macro and micro levels.

Keywords: Democratic principle, political institution activity, political institution, political processes, political reality, democratic state, political regime, political event, multiparty system, society values.

АННОТАЦИЯ

В статье описаны субъективные и объективные отношения в деятельности политических институтов. Политика (политическая теория) - политический институт (субъект и объект политической деятельности) - политический процесс (политическая реальность) - это взаимосвязанные события, в которых политический институт служит стержнем. Как теория, политика разрабатывает цели и задачи политической системы, политический институт организует взаимодействия субъектов и объектов деятельности, а политические процессы отражают то, как эти взаимодействия организованы. Конституционализм, основанный на демократических принципах, является отражением взаимодействий как субъекта и объекта политической деятельности, то есть может формировать политические процессы на макро- и микроуровне.

Ключевые слова: демократический принцип, деятельность политического института, политический институт, политические процессы, политическая реальность, демократическое государство, политический режим, политическое событие, многопартийность, ценности общества.

KIRISH

“Demokratiya” ko‘p ma’no va tushunchalarga ega, ammo ular ushbu hodisaning faqat ba’zi jihatlarini tavsiflaydi. Bugungi kunda olimlar orasida ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lgan yagona ta’rif mavjud emas. Shunga qaramay, tadqiqotchilar zamonaviy demokratiya bir qator prinsiplarga asoslanadi, ularsiz uning ishlashi mumkin emas. Ushbu prinsiplarga hokimiyatni ajratish tizimi, xalq suvereniteti, respublika boshqaruvi shakli, parlamentarizm, erkin saylovlari, pluralizm kiradi, bu ijtimoiy, madaniy va siyosiy rang-baranglikni belgilaydi va hokazo. Hayotning barcha sohalarida davlat-jamiyat munosabatlarining asosiy tartibga soluvchisi sifatida konstitutsionalizm, ayniqsa, uning rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarbdir.

Har bir demokratik davlat huquqiy islohotlarga intiladi. Uning rivojlanishi jamiyatning o‘zi belgilagan va shuning uchun u tomonidan tartibga solinadigan muayyan chegaralar doirasida sodir bo‘ladi. Bunday chegaralar asosiy qonun yoki Konstitutsiya bilan mustahkamlangan. Asosiy qonun sifatida davlat faoliyati chegaralarini belgilab, davlat mexanizmi tuzilmalari faoliyat yo‘nalishlari, shakllari va usullarini belgilaydi, shuningdek, davlat hokimiyati va uning fuqarolar bilan munosabatlarini tartibga soladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiya demokratiya va hokimiyatni boshqa shakllaridan ajratib turadigan prinsiplarni aks ettiradi. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan Konstitutsiya demokratik davlatda cheklovlar tizimini ifodalovchi asosiy davlat hujjati sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Bu demokratiya tamoyillarini amalga oshirishni tartibga soladi. Konstitusionalizm siyosiy prinsip sifatida zamonaviy davlat hokimiyatini tashkil etishning asoslarini belgilaydi.

Demokratik davlatning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uning asosiy qonunida tasdiqlangan va jamiyat tomonidan qabul qilingan barcha qoidalar amalda muvaffaqiyatli bajarilishi kerak. Haqiqiy demokratik siyosiy amaliyot Konstitutsiya qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak; rasmiy (huquqiy) konstitutsiyaviy (haqiqiy) tuzilma bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bunda belgilangan tamoyillarni yuzaga chiqarish siyosiy institutlar asosida mumkin bo'ladi, chunki buning natijasida butun yaxlit ijtimoiy tizim baholanadi va idrok qilinadi, natijada jamiyatda ustunlik qiladigan asosiy negizlar shakllanadi.

Siyosat va uning alohida institutlari (demokratiya va konstitusionalizm kabi) o'z tamoyillariga ega. Biz siyosiy institutlar, konstitusionalizm, va demokratizm haqida gaplashmoqdamiz, ular birgalikda ijtimoiy taraqqiyotning siyosiy sektori to'g'risida tasavvur beradi va ma'lum bir jamiyatda demokratiya rivojlanish darajasi, unda asosiy qonun qanchalik qonuniy ekanligi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga, uning ichki xususiyatlariga, konstitusion tuzilishning har xil turlariga qarab ajralib turadi. Biroq, tafovutlarga qaramay ularning barchasi demokratik davlatda qarorlarni qabul qilishning asosiy prinsiplarini qabul qilishni ta'minlaydigan institusional asosni tashkil etadi. Aynan konstitutsiyalar rag'batlantirish va tashkilotlarning umumiyligi tizim asosida ishlashi, jamiyatni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitusionalizm va demokratik tuzilish turlari ostida bo'lgan boshqa siyosiy institutlar, hodisalar va jarayonlarni vujudga kelishi va rivojlanishining muhim jihatlarini asoslaysi.

Demokratiya siyosiy rejim sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud bo'lib, jamiyat tomonidan hayotga tatbiq etiladigan asosiy qonunlar qabul qilingan, ammo ularning barchasi turli darajadagi demokratik tamoyillar bilan ajralib turadi. Ko'pgina davlatlarda konstitutsiyalar shunchaki rasmiyatchilikdir, ko'pincha ularning qoidalari amalda bajarilmaydi yoki muayyan qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Siyosiy institutlarni tahlil qilish bugungi demokratik dunyoni uning konstitutsiyaviy va demokratik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish imkonini beradi. Natijada zamonaviy davlatlardagi turli darajadagi demokratiyani namoyon

bo‘lishining asoslari ochib beriladi. Bu ushbu sohani, shuningdek, Konstitutsiyani nafaqat huquqiy xususiyat sifatida, balki siyosiy hodisa sifatida ham ko‘rib chiqish imkonini beradi. Shunday qilib, tanlangan muammoning dolzarbligi nazariya va ijtimoiy-siyosiy amaliyotning hozirgi holati bilan izohlanadi. Bu holat mikrodarajadagi biror bir jiddiy o‘zgarish makrodarajadagi siyosiy jarayonlarning ta’siri yoki «yo‘l-yo‘rig‘i»siz yuz bermaydi.

Siyosiy jarayon – bu siyosiy hodisalarning harakati, sur’ati, tadrijiyligi, siyosiy institutlar o‘zgarishlarining zamon va makondagi in’ikosidir. Shuning uchun siyosiy jarayonlarning tub xususiyati «tuzilmalar va vazifalar, institutlar va shakllarning har qanday o‘zgarishlari, siyosiy hodisalarning doimiy va muvaqqat alomatlari, tadrijiylik sur’ati va boshqa mezonlarni anglatuvchi o‘zgarish sifatida yuzaga chiqadi»¹.

Siyosiy hodisaning o‘zgarishi, eng avvalo, siyosiy faoliyat mazmunida va sub’ektlar (ob’ektlar)ning ijtimoiy rollarida yuz beradi. Garchi siyosiy faoliyat mazmuni va siyosiy sub’ektlarning ijtimoiy rollari juda yaqin bo‘lsada, biroq ularning o‘rtasida keskin tafovutlar mavjud. Siyosiy voqelik mazmuni siyosiy tizimning strategik vazifalari o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi, u siyosiy sub’ektlar (ob’ektlar) tomonidan muammo ko‘rinishining yig‘indisi va jamiyat yoki institut tomonidan sub’ekt (ob’ekt) uchun belgilangan ijtimoiy roldir. Demokratizm tamoyillari jamiyatimiz siyosiy tizimini qamrab olmoqda. O‘zbekiston jamiyati har qanday kishilik jamiyati singari serqirra, murakkab ijtimoiy tizimdir. Tizimlilik jamiyatning tabiiy holati va yashashning zaruriy shartidir. Jamiyat nisbatan yirik tizimli hodisa sifatida, o‘z navbatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ma’naviy ahloqiy, huquqiy tizimlarining majmuidir¹.

«O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda mustaqillik yillarda ro‘y bergan o‘zgarishlarni siyosiy tizim mazmunida demokratizm va konstitusionalizm tamoyillari asosida quyidagicha shakllanishini ko‘rish mumkin:

- hokimiyatni qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatga bo‘linishi;
- davlatning mustahkamlanishi va mahalliy hokimiyat tuzilmalari, aholini o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rivojlanishi;
- ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolining o‘sib borishi;
- nohukumat tashkilotlari, fuqarolik institutlari rivojlanishining huquqiy asosini barpo etish;

¹ Теория политики. Учебное пособие. /Под ред. Б.А. Исаева. - СПб.: Питер, 2008. –С. 278.

¹ Ўша манба.

- iqtisodiy demokratiya va xususiy mulkchilik institutlarining rivojlanishi;
- ommaviy kommunikatsiyaning mustaqil tarmoqlari hamda ish yuzasidan va intellektual muloqot uchun butkul yangi institutlar kabilarning barpo etilishi².

Ushbu tub o‘zgarishlar tufayli mamlakatimizdagi siyosiy jarayonlar demokratik, ob’ektiv qonuniyatlarga asoslangan hodisalar sifatida idrok etilmoqda. Chunki barcha o‘zgarishlarning markazida inson va uning hayotiy manfaatlari turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyilining e’lon qilinishi, davlat boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati talablariga mos holga keltirish uchun O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichini boshlab berdi»¹.

Siyosatshunoslar V.P.Pugachev va A.I.Solovevlar siyosiy jarayonlarni asosiy va hududiylarga bo‘lishni tavsiya etadi. «Ulardan dastlabkisi keng aholi qatlamlarini davlat bilan munosabatga jalb qilish usullari, boshqaruv qarorlarida aholi manfaatlari va talablari o‘zgarishi shakllari, siyosiy elitani shakllantirishning oddiy usullari va shu kabilarning turli-tumanligi bilan xususiyatlidir. Bu ma’noda siyosiy ishtirok va davlat boshqaruvi (qarorlar qabul qilish, qonunchilik jarayoni va h.k.) jarayonlari haqida so‘z yuritish mumkin.

Hududiy siyosiy jarayonlar esa ayrim siyosiy uyushmalar (partiyalar, ta’sir o‘tkazish guruhlari va h.k.)ning shakllanish sur’atini, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rivojini, hokimiyatni boshqarishning hukmon shakllari va usullariga sezilarli ta’sir o‘tkazmaydigan siyosiy tizimdagi boshqa aloqalar va munosabatlarni ochib beradi»².

Siyosiy tizim insonlar faoliyatining alohida sohasi – siyosat, siyosiy munosabatlar va aloqalar sohasi bilan bog‘liqidir. U muayyan siyosiy iordaning mahsuli sifatida vujudga keladi va bu iordaning amalga oshirilishiga safarbar etilgan vositalarning institutsiyaviy (tashkiliy tuzilmaviy) rasmiylashgan shakli tarzida namoyon buladi.

Bizning tadqiqotimiz ob’ektiga nisbatan asosiy siyosiy tizimda amalga oshirilayotgan jarayonlar sifatida butun respublikamiz, shu jumladan, uning sub’ekti Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy hodisalarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, 1991 yilda davlat mustaqilligining e’lon qilinishi, 1991 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, Prezidentlik instituti va ikki palatali parlamentning vujudga kelishi, saylovlar va

² Ўша манба.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь. –Т.: «Ўзбекистон», 2017. Б. 34-35.

² Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Учебник. –М: Аспект-Пресс, 1999. –С. 384.

referendumlar institutining kiritilishi, O‘zbekistan Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tashkil etilishi va shunga aloqador institutlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibida davlat suverenitetini e’lon qilinishi, 1993 yil 9 aprelda Qoraqalpog‘istonning o‘z konstitutsiyasini qabul qilishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining oliy davlat organi deb e’lon qilinishi va shu kabilarni kiritish mumkin. Shuning uchun asosiy va hududiy siyosiy jarayonlar makon va zamonda farqlanadi, lekin fuqarolarning siyosiy faoliyatini tashkil etishni amalga oshiradigan O‘zbekistan Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi siyosiy institutlari ularning sub’ektlari (ob’ektlari) bo‘lib qolaveradilar.

Siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlarning ob’ektlari (sub’ektlari) faoliyatiga g‘oya, milliy g‘oya katta ta’sir ko‘rsatadi. Biron-bir siyosiy tashkilot g‘oyasiz yashay olmaydi, chunki uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz faoliyat ko‘rsatishi, jamiyat va davlat loqayd bo‘lmaydigan faoliyat yo‘nalishi g‘oyaviy mavqeiga bog‘liq. Har qanday holatda siyosiy institutlarda g‘oyaviy asos bo‘lgan va bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, shiorlar yig‘indisi, siyosiy institutlar yetakchilarining xatti-harakatlari yoki asoslari, ularning bayon qilgan fikrlari hali g‘oya emas, u konseptual, nazariy shakllanish bosqichini o‘tishi lozim. Shundan so‘ng u dastur va strategik vazifa sifatida shakllanadi. Shuning uchun mafkura – bu siyosiy institutlar, millatlar yoki ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar va ma’naviy qadriyatlar tizimidir.

Tajribaning ko‘rsatishicha, barcha siyosiy institutlar u yoki bu darajada mafkuraviydir, farqi shundaki, mafkura ijtimoiy uyushish uchun asosmi yoki yo‘qmi? Mafkuraning muhim asosi jamiyat va davlat ijtimoiy munosabatlarining kelgusidagi ideal holati to‘g‘risidagi tasavvurdir. Siyosiy institutlarning barcha faoliyati va barcha siyosiy institutlar, mohiyatiga ko‘ra, ushbu tasavvur in’ikosi hisoblanadi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston siyosiy institutlari siyosiy jarayonlar sub’ekti va ob’ekti sifatida milliy g‘oyaga, uning jamiyat va davlatning kelajakdagi ideal holati to‘g‘risidagi fundamental qoidalarga tayanadi.

Milliy g‘oya, eng avvalo, tub millat, ya’ni o‘zbek millatining manfaatlari va intilishlarini namoyon etadi. Biroq, bu milliy g‘oya jamiyatning ko‘pmillatliligi, davlat tuzilmasining ko‘pmillatli xususiyatini hisobga olmaydi, degani emas, u faqat tub millatning birlashtiruvchi rolini namoyon etadi. Shuning uchun milliy g‘oyada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda yashaydigan barcha xalqlar va elatlarning manfaatlari va intilishlari bayon qilingan, shuning uchun u umumxalq, umumdavlat xususiyatga ega.

Milliy istiqlol mafkurasining siyosiy faoliyat ob'ekti va sub'ektiga ta'sirining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etgan R.Z.Jumaev: «milliy istiqlol g'oyasi inson va jamiyat orasidagi munosabatlarning yangi tizimini, shaxs va davlat huquq va majburiyatlari tengligini bayon qiladi. Bunday sharhda inson idrok qilinadi va talqin etiladi, huquqiy munosabatda esa davlat qurilishi sub'ekti sifatida va davlatning qo'llab-quvvatlash, tarbiyalash va himoya qilish ob'ekti sifatida belgilanadi»³, deb ta'kidlaydi. Demak, inson sub'ekt sifatida davlat boshqaruvida ishtirok etadi, ob'ekt sifatida esa o'zining ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan himoyalanish va qo'llab- quvvatlanish huquqiga ega. Aynan shu asosiy fikr milliy mafkura asosiga qo'yilgan.

Milliy g'oyadagi tamoyillardan biri davlat mustaqilligini, siyosat sub'ekti va ob'ekti o'zaro munosabatlari, inson va hukumatning o'zaro harakati mohiyati aks etgan davlatchilikni mustahkamlash tamoyilidir. Davlatning siyosiy faoliyatida inson manfaatlari ustuvorligini ko'zdan qochirmay, kuchli ijroiya hokimiyatga urg'u berilgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «... eng odil va eng oqil qonunlar va qarorlar ham bajarilmay, shunchaki qog'ozda qolib ketishi mumkin. Bu hol qonunlarni joriy etishga, fuqarolar huquqlarini va erkalarini muhofaza qilishga, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga qodir Prezidentlik hokimiyatini kuchaytirishni taqozo etadi»¹. Davlatshunos Z.M.Islomovning fikricha, «mamlakatimiz xalqlari doimo kuchli hokimiyatga moyil bo'lган. Agar o'tmishimizga nazar tashlasak, to'g'rirog'i, uni esga olsak, O'zbekiston milliy-siyosiy hodisa sifatida kuchli davlat hokimiysi tomonidan yaratilgan. Ammo hech qachon (hatto Amir Temur davrida ham) totalitar hayot tarzi, madaniyat va xo'jalikka qarshi bosh ko'tarmagan. «Davlat ishlarining o'ndan to'qqiz qismini kengashlar, tadbirlar va uchrashuvlar yordamida, bor yo'g'i o'ndan birinigina qilich yordamida hal qildim» degan so'zlar buning yorqin namunasidir»². Demak, kuchli ijroiya hokimiysi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda barqarorlikni saqlash hamda demokratik islohotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirish uchun zarur. Bularsiz siyosiy jarayonlar o'zining ijobjiy yaratuvchanlik ahamiyatini yo'qotadi.

O'rni kelganda demokratiya to'g'risida ham to'xtalib o'tish lozim. Davlatimiz o'z mustaqilligini e'lon qilganining ilk kunlaridanoq demokratiya va uning

³ Жумаев Р. Сиёсий технологиялар. 2018 й. 87 б.

¹ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг XII чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг X сессиясида 1992 йил 2 ва 3 июлда сўзланган нутқ.

² Исламов З.И. Каримов о роли государственной власти (вопросы теории). //Жамиятни, демократлаштириш, янгилаш ва ислоҳ қилиш муаммолари. Илмий-аналий анжуман материаллари. –Т.: ТДЮИ, 2005. - 20 б.

qadriyatlariga moyilligini namoyon qildi. Albatta, demokratiya insoniyat tarixi va tamaddunning eng buyuk qadriyatidir. Biroq, u intizom, milliy mentalitet va hayot tarzini hisobga olishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: «demokratiya bu nafaqat nazariya va siyosiy jarayon, balki mentalitet, an’analar, madaniyatning o‘ziga xos jihatlari, psixologiya kabilar birgalikdagi xalqning hayot tarzidir. Demokratiya g‘oyasini e’lon qilish mumkin, siyosatda demokratiyaning yuqorida «tushirish» mumkin, biroq bu bilan demokratiya siz bilan bizning bugungi hayotimizga kirib qolmaydi.

Demokratiya jamiyat qadriyati, har bir insonning qadriyatiga aylanishi lozim hamda bu bir vaqtida yuz beradigan harakat emas. Xalq madaniyatida o‘z o‘rnini topmagan demokratiya hayot tarzining tarkibiy qismiga aylana olmaydi. Buning uchun uzoq davom etadigan tayyorgarlik va demokratiya tamoyillarini o‘zlashtirish lozim»¹.

Bundan kelib chiqadiki: birinchidan, davlatimiz demokratiyaning umumiy qadriyatlariga sodiq qolmoqda; ikkinchidan, bu milliy manfaatlardan kelib chiqmokda, uning to‘la ijobiy, ijodiy ma’nodagi ifodasiga aylanmoqda; uchinchidan, G‘arbning barcha demokratiya qadriyatları bizning hayotimizga singib, ijtimoiy xatti-harakatlar me’yoriga aylana olmaydi, o‘zbek xalqi madaniyati tomonidan o‘zlashtira olinmaydi.

G‘arb demokratiyasi butunlay boshqa sharoitlarda, sinfiy kurash ba’zan misli ko‘rilmagan, yuksakliklarga ko‘tarilgan va ziddiyatlar fuqarolik urushi bilan birga kechgan boshqacha an’ana va madaniyat asosida shakllangan. Shuning uchun siyosiy jarayonlarning sub’ektlari (ob’ektlari) asosiy qoida – demokratiyani eksport qilish, kuch ishlatish yoki ommabop va’dalar, shiorlar bilan olib kirish mumkin emas, u xalq madaniyatining ajralmas qismi, kishilarning hayot tarzi, xalqning o‘z manfaatlarini rag‘batlantirishi uchun mentalitetga aylanishi lozim ekanligini unutmasliklari zarur.

Siyosiy jarayonlarda viloyat (mahalliy) va hududiy siyosiy institutlar muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy institutlarning strategik vazifalari, asosan, joylarda mahalliy siyosiy institutlar orqali hal qilinadi. Ular, ya’ni mahalliy va hududiy siyosiy institutlar mahalliy aholining siyosiy faolligi sub’ekti va ob’ekti sifatida, bir tomonidan, markaziy organning mahalliy tashkilotlar, uning asosi bilan aloqasini ta’minkaydi, boshqa tomonidan esa siyosiy institutning muayyan hudud, viloyat yoki tuman hayotidagi maqsad va vazifalarini amalga oshiradi. Siyosiy institut o‘zining joylardagi institutlari yoki bo‘linmalarisiz samarali faoliyat yurita olmaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг XII чакирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг X сессиясида 1992 йил 2 ва 3 июнда сўзланган нутқ.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda konstitusionalizm va demokratizm tamoyillariga asoslangan hududiy sohalar bilan bog‘liq holda siyosiy institutlarning quyidagi shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) o‘z faoliyatini O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston miqyosida amalga oshiruvchi umumrespublika siyosiy institutlari; 2) faoliyati aholi o‘rtasida siyosiy jarayonlarni tashkil etish, mahalliy hokimiyat organlari amaliy faoliyatiga bevosita ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan viloyat yoki tuman siyosiy institutlari; 3) hududiy siyosiy institutlar o‘z siyosiy harakatlari, tadbirlarini hudud doirasida amalga oshiradilar. Hududiy siyosiy institutlarga, masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy institutlarni kiritish mumkin. Biroq, mahalliy va hududiy siyosiy institutlar cheklangan holda, odatda, respublika poytaxtida joylashgan markaz, boshqaruvning markaziy organi bilan aloqasiz ishlanmaydi, o‘zining hududiy shakllanish alomatlarini saqlagan holda butun siyosiy tizim bilan mustahkam o‘zaro harakatda bo‘ladi. Shuning uchun siyosiy institutlar, jumladan, siyosiy jarayonlar ham respublikamizda umumrespublika xususiyatiga ega. Demokratizm va konstitusionalizm tamoyillarining shakllanishi siyosiy jarayonlarning umumrespublika xususiyati siyosiy vazifalar va siyosiy loyihalarni amalga oshirish usullarining mutlaqo bir-biriga o‘xshashligiga olib kelmaydi.

O‘zbekistonda siyosiy institutlar mahalliy, hududiy bo‘linmalar, tuzilmalarsiz tashkiliy-siyosiy jihatdan ham, huquqiy jihatdan ham faoliyat ko‘rsata olmaydi. Bu, bizning fikrimizcha, samarali faoliyat ko‘rsatish, ijtimoiy kuchlarni birlashtirish va jamiyat barqarorligini saqlashda o‘zini oqlaydi va maqsadga muvofiqdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahqamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir deyilgan⁴. Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasida uning xalqining oliy maqsadi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ekanligi o‘z ifodasini topgan. Qonunning oliyligi masalasi anchagina serqirra bo‘lib, u ijtimoiy huquqiy va gnoseologiyalik jihatlarga ega. Bu o‘rinda asosan O‘zbekistonning milliy huquqiy tizimida qonun oliyligini ta’minlash, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining real joriy etilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Qonun ustuvorligini ta’minlash, nihoyatda demokratik mazmundagi ishdir. Qonunga og‘ishmay itoat etadigan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo‘ladi. Qolaversa, barcha siyosiy demokratik institutlar inson huquq-erkinliklari qonun vositasi bilan joriy etiladi.

⁴ Корақалпог‘истон Республикаси Конституцияси. Нукус. 2020. 19 модда.

Demokratiya xaqida gap borganda Konstitutsianing oliyligini, ustuvorligini ta'minlash muhimligini e'tirof etish lozim. Konstitutsiya mamlakat huquqiy tizimining poydevori – xalqimizning davlat donishmandligi va siyosiy tafakurining mahsulidir. Konstitutsiya xalq bilan bevosita muloqotda keng maslahatlashish va uning manfaatli muhokamasi natijasida yaratilgan. Qoraqalpog'iston xalqi o'z Konstitutsiyasining chinakam ijodkoridir. Konstitusionalizm – Konstitutsiya normalari birlamchiligi ta'sis etuvchi xususiyatga ega bo'lib, ularni bajarmaslik yoki ularga rioya etilmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Demokratizm va konstitusionalizm qonunlarga qat'iy amal etilgandagina amaliy natijaga ega bo'ladi. Quyidagi tamoyillar demokratizm va konstitusionalizmning Qoraqalpog'istondagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi:

Birinchidan – jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunlarning qa'tiy hukmronligi, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishi.

Ikkinchidan – ijtimoiy munosabatlarning jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlariga mos tarzda tartibga solinganligi mamlakat miqiyosida barqarorlik va qonuniylik muhitining o'rnatilganligida.

Uchinchidan – huquq buzilishi hollarining oldini olish, shuningdek, huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda javobgarlikga tortish uchun huquqiy asos vazifasini bajaradi⁵.

Qoraqalpog'istonda hududiy siyosiy institutlar (bo'linmalar), tuzilmalar markaziy organ va bo'linmalar, tuzilmalar a'zolarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan yuridik shaxslardir. Ular respublika Adliya vazirligi idoralarida ro'yxatdan o'tadi va tegishli guvohnomaga ega bo'ladi. Ularning siyosiy faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiylar to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy tashkilotlar to'g'risida», «Davlat notiyorat tashkilotlari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi respublika qonunlari, Siyosiy institut nizomi va boshqalardir.

Hudud siyosiy faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari konstitusionalizm va demokratizm tamoyillari sifatida ishtirok etadigan siyosiy jarayonlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- hudud manfaatlarini mamlakat siyosiy hayotida namoyon etadi;

⁵ Муаллиф талқини.

- markaziy organ yoki institutning siyosiy qarorlarini hudud hayotiga tatbiq etadi;
- shaharlar, qishloqlar va tumanlarda bo‘linmalar (birlamchi bo‘limlar)ning barpo etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;
- hukumat vakillik organlari deputatlari, mahalliy ma’muriyat rahbarlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari deputatlari saylovlarida ishtirok etish;
- hududiy siyosiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni o‘z deputatlari orqali Jo‘qorg‘i Kenges yoki Oliy Majlisga taqdim etish;
- ijtimoiy-siyosiy maqsadlar, dasturlarni targ‘ib qilish uchun siyosiy harakatlar, tadbirlar tashkil etish;
- referendumlarda ishtirok etishdan iborat⁶.

Ushbu vazifalarning har biri o‘z ichki tuzilmasiga ega va bosqichma- bosqich, ya’ni boshqaruv amaliyotining mantiqiy izchilligida amalga oshiriladi. Masalan, hudud manfaatlarini mamlakat siyosiy faoliyatida namoyon etish vazifasini olaylik. Avvalo, nimani o‘rganish lozim va qanday usullar, vositalar bilan o‘rganish rejalashtiriladi. Bu yerda «nima» belgilanishi, aniqlanishi lozim bo‘lgan muammoni, «qanday usullar» texnologiyani anglatadi. Muammo va texnologiya aniqlangach, qarorlar qabul qilinadi. Qarorlar qabul qilingandan so‘ng siyosiy (boshqaruv) jarayonning navbatdagi bosqichiga – kuch va vositalarni tashkil qilishga o‘tamiz. Hudud manfaatlarini o‘rganuvchi guruh faoliyatini tashkil qilish barcha boshqaruv (siyosiy) jarayonlarining asosini tashkil etadi. Aynan tashkil qilish hudud manfaatlari qanchalik muvaffaqiyatli shakllantirilayotgani emas, balki ular umumiylashtirishda qanchalik isbotlangan holda namoyon etilayotganini ham belgilaydi. Shuning uchun ham demokratik asosda shakllangan konstitusionalizm kuchlar va vositalarni tashkil etish siyosiy vositalar ob’ektlari va sub’ektlari, barcha manfaatdor tomonlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi.

XULOSA

Muvofiqlashtirish bosqichida qabul qilingan qarorlar va qo‘llanilayotgan usullarning to‘g‘riligi aniqlab olinadi. So‘ngra nazoratni amalga oshirish bosqichi, ya’ni hudud manfaatlarini Jo‘qorgi Kenges yoki Oliy Majlisga taqdim etilishini kuzatish boshlanadi. Konstitusionalizm va demokratizm siyosiy institatlarni boshqarishning strategiyasini belgilab beradi, taktik vazifalarini siyosiy-tashkiliy va huquqiy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun siyosiy institatlarning samarali ishlashi ularning konstitusionalizm va demokratizm

⁶ Исламов З.И. Каримов о роли государственной власти (вопросы теории). //Жамиятни, демократлаштириш, янгилаш ва ишлоҳ қилиш муаммолари. Илмий-аналий анжуман материаллари. –Т.: ТДЮИ, 2005. - 20 б.

tamoyillaridan foydalanishiga bog‘liq. Bugun o‘zgarayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot, demokratik yangilanish jarayonlari, huquqiy davlat qurish talablari ushbu tamoyillarga rioya etishni, ularni butun ijtimoiy borliqqa singdirishni taqozo etadi.

Albatta, bu siyosiy jarayon, uning sub’ektlari va ob’ektlari xatti- harakatlarining nazariy, taxminiy modelidir. Lekin har bir siyosiy hodisa betakror, o‘ziga xos, gohida aniq tahlilga bo‘ysunmaydigan harakat, hodisadir. Aynan siyosiy jarayon, uning sub’ektlari va ob’ektlari xatti- harakatlarining betakrorligi nazariy darajada bo‘lsada, ularni modellashtirishni taqozo etadi, fan, jumladan, siyosatshunoslik ham shunga safarbar qilingan.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 va 3 iyulda so‘zlangan nutq.
2. Jumaev R. Siyosiy texnologiyalar. 2018 y. 87 b.
3. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22 dekabr. –T.: «O‘zbekiston», 2017. B. 34-35.
4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 va 3 iyulda so‘zlangan nutq.
- Qoraqolpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi. Nukus. 2020. 19 modda.
5. Исламов З.И. Каримов о роли государственной власти (вопросы теории). //Жамиятни, демократлаштириш, янгилаш ва ислоҳ килиш муаммолари. Илмий-аналий анжуман материаллари. –Т.: ТДЮИ, 2005. - 20 б.
6. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Учебник. –М: Аспект-Пресс, 1999. –С. 384.
7. Теория политики. Учебное пособие. /Под ред. Б.А. Исаева. - СПб.: Питер, 2008. –С. 278.